Ona tili

I qism

2



novda
edutainment

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

S.D.Kuranov

Ona tili
2-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.



novda
edutainment

Toshkent – 2023

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O'zb-922
Q 80

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

S. Kuranov
Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik
I qism. / Kuranov S. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023-y. – 88 b.

Taqrizchilar:

M.M.Umarova – Toshkent shahri 222-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M.I.Xujayeva – Toshkent shahri 142-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9686-8-4

© S. Kuranov
© "Novda Edutainment", 2023-y.

Shartli belgilar



Og‘zaki bajaring



Yodda tuting



O‘ylab ko‘ring



Uyga vazifa



Yozma bajaring



Guruh bo‘lib ishlaymiz



Juft bo‘lib ishlaymiz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIM BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 12
-3-09 2023

Tovushlar va harflar



Bolam, qara, dunyo xaritasiga e’tibor qil. Unda davlatimiz O‘zbekiston boshqa yuzlab davlatlar ichida ajralib turibdi. Davlat, eng avvalo, o‘z maydoniga ega bo‘lishi kerak. Davlatning o‘z aholisi, hamma birdek amal qiladigan qonunlari bo‘ladi. Eng muhimi, davlat mustaqil bo‘ladi.



1. Davlatning yana qanday belgilarini bilasiz?
2. Davlatning o‘z tili va alifbosi ham bo‘lishi kerakmi?
3. O‘zbek tilida nechta tovush va harf bor?

E’tibor bilan o‘qing.

Biz – odamlar atrofimizdagi turli xil tovushlarni eshitamiz:



1-mashq. Rasmlarga e’tibor bering. Qavslarni ochib, gaplarni to‘g‘rilab o‘qing va ko‘chiring.



2



3



2-mashq. Rasmlarga qarang. Ular asosida bir nechta gap tuzing.







Odamlar gapirganda hosil bo‘ladigan tovushlar tabiatdagi boshqa tovushlardan farq qiladimi?

Qoidani tushunib oling.

Faqat odamlargina tovushlar yordamida so‘zlar, gaplar tuza oladi va o‘zaro suhbatlashadi. Odamlar so‘zlashganda talaffuz qiladigan tovushlar *nutq tovushlari* deyiladi.



3-mashq. Matnni o‘qing. Savollarga javob bering. Matnni ko‘chiring.

Hamma hovlining o‘rtasidagi katta doshqozon atrofiga yig‘ilgan. Ayollar sopi uzun kapgir bilan galma-gal qozonni kavlashyapti. Bolalar qiy-chuvlashib o‘ynashyapti. Munisa xola esa childirmani baka-bum qilib chalgancha qo‘shiq kuylamoqda.

1. Matnda qaysi taomning tayyorlanish jarayoni tasvirlangan
2. Bolalar nima qilishyapti?
3. Kattalar nima bilan band?

Atrofingizda eshitilayotgan tovushlar ishtirokida 3 ta gap tuzing.

1. O‘zbekistonning poytaxti qaysi shahar? Uning nomini ayting va yozing.
2. Poytaxtimiz haqida so‘z ketganda ko‘z oldingizga nimalar keladi?




Qoidani tushunib oling.

Tovushlar yozuvda *harflar* bilan ifodalanadi.



4-mashq. Tovushlarni harflar bilan ifodalashga harakat qiling.



5-mashq. Atrof-muhitdagi qaysi tovushlarni harflar bilan ifodalash mumkin? Misollar yozing.

6-mashq. Shaharlar nomini yozing. Yozgan so‘zlaringizda tovushlar va harflar sonini sanang.






Tovushlar va harflar soni tengmi? Izohlang.

Qoidani tushunib oling.

Ayrim so‘zlarning aytilishi bilan yozilishi farq qilishi mumkin. Bunday so‘zlarda tovushlar va harflar soni teng bo‘lmaydi. Masalan, *daraxt* deb yoziladi, *darax* deyiladi.



7-mashq. She’rni o‘qing. Tovushlar va harflar soni teng bo‘lmagan so‘zlarni ko‘chiring.

So‘lim o‘lka –
Kesh, Farg‘ona.
Qadim Urganch –
Shu durdona.
Ko‘rkam Toshkent –
Asal, qandim,
Kesh, Buxoro,
Samarqandim.

Tursunboy Adashboyev



Aytilishi va yozilishi bir-biridan farq qiladigan so‘zlar ishtirokida 3 ta gap tuzing.

8-mashq. Tovushlar charxpalagini aylantirib, bitta tovush bilan farqlanayotgan so‘zlarni yozing.



o sh
... o sh
... o sh
... o sh
... o sh
... o sh







Qoidani tushunib oling.

Ayrim so‘zlar bitta tovush bilan farqlanishi mumkin: gul – kul, yo‘l – yul, asal – kasal.




9-mashq. Berilgan so‘zlardan bitta tovush bilan farqlanadigan so‘zlarni topib yozing.

tuz – …	ko‘p – …	non – …
qiz – …	olma – …	paxta – …

10-mashq. Bitta tovush bilan farqlanadigan so‘zlar topib, ular ishtirokida 3 ta gap tuzing.

11-mashq. Matnni o‘qing. Bir tovush bilan farqlanadigan so‘zlarni ajratib yozing.



O‘zbekiston – ozod va obod diyor. Tabiati chiroyli. Ayniqsa, bahor fasli qir va adirlarida alvon lolalar ochiladi. Bolalar esa dovuchcha yeyish uchun o‘rik shoxlariga osiladilar.

So‘zlarni bir-biridan farqlab turgan tovushlar tagiga chizing.

***To‘n* va *choy* so‘zlaridan bitta tovush bilan farqlanuvchi imkon qadar ko‘proq so‘z topib yozing.**

12-mashq. Ikki guruhga bo‘lining.

1-guruh: tabiatdagi jonli va jonsiz narsalarning *tovushiga* taqlid qiladi.
2-guruh: birinchi guruh talaffuz qilgan tovushlarni *harflar* bilan yozadi.

Diqqat! *Qaysi guruh tovushlarni harf bilan aniqroq va to‘g‘riroq ifodalasa, shu guruh g‘olib bo‘ladi.*

13-mashq. Rasm asosida jonli va jonsiz narsalarning tovushlari qatnashgan gaplar tuzing.



14-mashq. Berilgan gaplarda bir tovushni almashtirish orqali gap mazmunini o‘zgartiring.



Mazali non.

Uzoqdan katta bog‘ ko‘rindi.





Bolg‘a – duradgor uchun eng kerakli asbob.

Milliy bayramlarimizning nomini yozib, ulardagi harflar va tovushlarning sonini aniqlang.


Buvijon, Halima kelinoyi qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, menga choy uzatdilar. Shirinliklarni oldimga qo‘yib: “Oling, ola qoling”, – dedilar.
O‘zbek xalqi – mehmondo‘st xalq. Mehmon kelganda uning yoshiga, kimligiga qarab o‘tirmaydi. Har bir mehmon e’zozlanadi, hurmat qilinadi. Bu – xalqimizning eng go‘zal odoblaridan biri.

Unli tovushlar va harflar



1. Siz ham tez-tez mehmonga borib turasizmi?
2. Mehmonga borganda bolalar o‘zlarini qanday tutishlari kerak?
3. *Mehmon* so‘zida nechta unli tovush bor?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIM BO‘LIMI
33-UMUMIY
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI
№ 12
-3-09

1-mashq. Rasmlarga qarang.



1-rasm. Unli tovushning aytilishi.



2-rasm. Undosh tovushning aytilishi.

A **va** ***T*** **tovushlarining aytilishida qanday farq bor? Qaysi tovushni aytayotganimizda og‘zimizdan chiqayotgan havo to‘siqqa uchramaydi?**

2-mashq. Tovushlarni ovoz chiqarib ayting. Qaysilarida havo hech qanday to‘siqqa uchramaydi?



Bu tovushlar qaysi harflar bilan ifodalanadi?

Qoidani tushunib oling.

Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda havo og‘izda to‘siqqa uchramay, erkin o‘tadi. Faqat ovoz eshitiladi.


O‘zbek tilida oltita unli tovush bor: *a*, *e*, *i*, *o*, *u*, *o‘*.

Unli tovushni ifodalaydigan harflar ham oltita: *a*, *e*, *i*, *o*, *u*, *o‘*.



3-mashq. Maqolni o‘qing, izohlang va daftaringizga ko‘chirib, unli harflar tagiga chizing.

Mehmonxonang tor bo‘lsa ham,
Mehri-diling keng bo‘lsin.



4-mashq. Unlilar mehmonga borishdi. Ularni o‘z o‘rinlariga o‘tqazing.

T...mur dast...rxon
...trofida od...b b...lan
...tirdi.



Unlilarni o‘z o‘rniga qo‘yib, hosil bo‘igan gapni daftaringizga ko‘chiring.

Mehmon mavzusida 3 ta maqol topib yozing. Unli harflar tagiga chizing.

5-mashq. Berilgan so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing. Savollarga javob bering.

dada ona aka opa

1. Bu so‘zlarda qanday umumiy o‘xshashliklar bor?
2. Nima deb o‘ylaysiz, nega go‘daklarning birinchi so‘zlari *dada, ona, opa, aka* kabi so‘zlar bo‘ladi?

Go‘dakligingizda birinchi aytgan so‘zingiz qaysi bo‘lgan? Buni kattalardan so‘rab biling.





Unli tovushlarni talaffuz qilish undosh tovushlar talaffuzidan osonroq.

6-mashq. Unlilarni birma-bir ovoz chiqarib talaffuz qiling: *a, e, i, o, u, o‘*. Tovushlar talaffuzida lablaringiz qanday harakat qilayotganiga e’tibor bering.

7-mashq. **Rasmlarga qarang. Qizlarning lab harakatlari va holatiga ko‘ra unli tovushlarni toping.**



? – A ? – U ? – E

? – O ? – I ? – O‘

8-mashq. **Ovozsiz, lab harakatlari bilan rasmdagi hayvonlar nomini ayting, partadoshingiz uni topsin.**



9-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Sherzod **oyisi**, dadasi va **akasi** bilan katta **amakilarining** uyiga mehmonga bordi. **Ular** biroz kech qolishibdi. Amakisi ularni kutib, palovni suzmay turgan ekan.

Yozgan so'zlaringizda nechta bo'g'in borligini qanday aniqladingiz?

Qoidani tushunib oling.




Har bir unli tovush bitta bo'g'in hosil qiladi: *o-ta*, *o-na*, *a-ka*.

10-mashq. O'qing. Faqat bir unli tovush bo'g'in hosil qilgan so'zlarni yozing.

anor	ota	ilon	o'rmon
anjir	ona	ilik	echki
adir	olma	igna	etik
amma	uzum	o'roq	eshik
aziz	uzuk	o'choq	elchi

Bitta unli tovush bo'g'in hosil qila oladigan so'zlarni toping va ular ishtirok etgan 3 ta gap tuzing.

11-mashq. Musiqa notalari nomini ovoz chiqarib talaffuz qiling. Savollarga javob bering.



Do Re Mi Fa Sol Lya Si

1. Notalar talaffuz qilinganda qaysi tovushlar cho'zib aytilmoqda?
2. O'ylab ko'ring, nega aynan shu tovushlar cho'zib aytiladi?

Qoidani tushunib oling.

Unli tovushlar cho'zib talaffuz qilinadi va ular musiqiy xususiyatga ega.



12-mashq. Qo‘shiqni xirgoyi qiling. Qaysi unliiar cho‘zib aytilayotganiga e’tibor bering.

Boychechak



Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayrondir.
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayrondir.

Naqarot:
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

13-mashq. Rasmdagi narsalarning nomini ovoz chiqarib ayting va yozing.



Imlo lug‘atiga qarab, so‘zlarni to‘g‘ri yozganingizni tekshiring.

14-mashq. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

sh…mol	h…vo	j…vob	t…mom
t…rvuz	j…hon	b…ho	sh…ftoli
b…hor	m…shina	b…hodir	

Bu so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida qaysi unli tovush aytiladi va yoziladi?

15-mashq. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.



So‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inida qaysi unli tovush aytiladi va yoziladi?

6 ta o‘zbek milliy taomi nomini yozing. Unlilar tagiga chizing.

16-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozing. *I* unlisining tagiga chizing.

O‘zbek palovi (osh)ning **qirqdan ortiq** turi bor. **Lekin** har **bir** xonadonda tayyorlangan oshning **mazasi** o‘zgacha bo‘ladi.



Qaysi so‘zlarda *i* tovushi deyarli eshitilmaydi?

17-mashq. Xato yozilgan so‘zlarni namunadagidek to‘g‘rilab yozing.

Namuna: chumchiq

burin qudiq johon hovo

urug‘ shomol mashina

baho bohor jovob bahodir



18-mashq. Rasm asosida hikoya tuzing. Hikoyaning birinchi gapidagi unli harflar tagiga chizing.





Ikki guruhga bo‘linib, *“Oq terakmi, ko‘k terak?”* o‘yinini o‘ynaymiz.

1. Har ikki guruh 5 tadan murakkab so‘z tuzsin.
2. Tuzilgan so‘zlardan unli harflarni olib tashlab, so‘zlarni qog‘oz parchasiga yozing.
3. Har ikki guruh qog‘ozlarini ochmagan holda bir-biriga bersin.
4. “Oq terakmi, ko‘k terak, bizdan sizga qaysi unli kerak?” deb so‘raladi.
5. Guruh birinchi so‘z uchun kerakli unlilarni 15 soniya ichida sanab aytishi kerak.

O‘zingiz yaxshi ko‘rgan milliy taom qanday tayyorlanishini yozing. Masalliqlar nomlaridagi unlilar tagiga chizing.

Namuna:

Qozonni qizdirib, o‘simlik yog‘ini quyamiz. Sabzavot va go‘shtni to‘rtburchak qilib to‘g‘rab olamiz. Sarimsoqpiyozni maydalaymiz. Piyozni oltin tusga kirgunicha qovuramiz va go‘sht qo‘shamiz. Biroz qovurgach, pomidor qaylasi va sarimsoqpiyoz, yana ozgina qovurilgandan so‘ng, sabzi qo‘shamiz. Yaxshilab qovurib olib, kartoshkani qo‘shamiz va qovurishda davom etamiz. So‘ng bulg‘or qalampiri, pomidor va ziravorlar qo‘shib aralashtiramiz, so‘ng suv quyamiz. Hamma sabzavotlar va go‘sht pishguncha o‘rta olovda qaynatamiz. Tayyor sho‘rvani ko‘katlar bilan bezatib, dasturxonga tortamiz.

Yoqimli ishtaha!




Samarqand – dunyoning go‘zal va qadimiy shaharlaridan biri. U yerda o‘zingni xuddi ertaklar olamiga tushib qolganday his qilasan.
Oyijon, Samarqand qanday joy?
Oyijon, unda ta’tilni kutmay, ertagayoq yo‘lga chiqaylik!

Undosh tovushlar va harflar







1. Siz Samarqandda bo'lganmisiz? U yerga borishni istaysizmi?
2. Yurtimizdagi yana qaysi shaharlarni bilasiz?
3. *Samarqand* so'zida nechta undosh tovush bor?

“Samarqand – yer yuzining sayqali” deyishadi. O‘ylab ko‘ring, “sayqal” so‘zining ma’nosi nima?



1-mashq. Kichik tajriba o‘tkazing.

1. Pufakni shishirib, uning og‘zini qo‘lingiz bilan mahkam siqing.
2. Qo‘lingizni biroz bo‘shatib, pufak ichidagi havoni chiqaring.
3. So‘ng pufak og‘zini butunlay qo‘yib yuboring.
4. Ikkala holatda hosil bo‘lgan tovushlarni eshiting.

Pufak og‘zi biroz bo‘shatilganda va butunlay bo‘shatilganda ikki xil tovush eshitildimi?
Nima deb o‘ylaysiz, ikki xil tovush hosil bo‘lishining sababi nimada?

2-mashq. Kichik tajriba o‘tkazing.

1. Chuqur nafas olib, o‘pkangizni xuddi pufak kabi shishiring.
2. Keyin og‘zingizni ochib, barcha havoni tashqariga chiqaring.
3. *a*, *o*, *u* unli tovushlarini ayting.
4. Yana nafas oling va chiqaring. Bu safar *b*, *t*, *k* undoshlarini ayting.


Xo‘sh, unlilar va undoshlarni talaffuz qilganda havo, lab hamda tilning harakatlarida qanday farqni sezdingiz?

Qoidani tushunib oling.

Undosh tovushni talaffuz qilayotganimizda havo og‘izda to‘siqqa uchraydi.

O‘zbek tilida ***24 ta undosh tovush*** bor. Ular ushbu harflar bilan ifodalanadi: *b*, *d*, *f*, *g*, *h*, *j* (jo‘ja), *j* (jirafa), *k*, *l*, *m*, *n*, *p*, *q*, *r*, *s*, *t*, *v*, *x*, *y*, *z*, *g‘*, *sh*, *ch*, *ng*.





3-mashq. Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.


Bundan olti asr muqaddam **Samarqand** qadimgi o‘rnidan janubroqda qayta tiklandi va ko‘p o‘tmay, **Amir Temur** tomonidan **mamlakat** poytaxtiga aylantirildi. **Shahar** atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o‘rab olindi, **mustahkam** binolar qurildi. Keyinroq shaharning markaziy maydoni – **Registon** barpo etildi.

“Bolalar ensiklopediyasi”dan

1. Samarqandda nimalar qurildi?
2. Samarqandning markaziy maydoni nima deb ataladi?

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. Undosh harflar tagiga chizing.

4-mashq. **Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo‘yib, shahar nomlarini yozing.**



Tug‘ilib o‘sgan joyingizdagi tarixiy obidalar nomini yozing. Undoshlar tagiga chizing.

5-mashq. Rasmlar orasidan Samarqand shahridagi tarixiy binolarni topib, nomini yozing. Undosh harflar tagiga chizing.


Kalta Minor


Shohi Zinda majmuasi



Registon majmuasi


Go‘ri Amir maqbarasi



Oqsaroy


Minorai Kalon


Bibixonim majmuasi


Ko‘kaldosh madrasasi

6-mashq. Kichik suhbat tuzing.



7-mashq. She’rni o‘qing. Unda nimalar tasvirlanganini so‘zlab bering.

Samarqandga sayohat

Gumbazlarda tong chog‘i,
O‘ynar quyosh shu’lasi.
O‘ynar ming gul bo‘yog‘i,
Ming bir chaman jilvasi.
Kezamiz Registonda,
Qasrlar jim,
Toshlar jim.
Go‘yo buyuk insonga
Asrlar qilar ta’zim.

Rauf Tolib



She’rning oxirgi ikki qatorini yozing. Undoshlar tagiga chizing.

8-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo‘yib, so‘zlarni yozing.

Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug‘bek Samarqan... shahri yaqinida o‘z davrining eng kat...a rasad...onasini qurdiradi. Bu yerda Mirzo Ulug‘bek o‘z shogir...lari bilan birga yulduzlarni kuzatgan. Dunyo...a mashhur “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” ki...obi shu yerda yozi...gan.



Rasadxona nima ekanligi haqida ma’lumotlar toping va qisqacha yozing.

9-mashq. **So‘zlarni o‘qing va yozilishini eslab qoling.**

Toshkent poytaxt Samarqand

baland past farzand

O‘yin sharti: bir o‘quvchi so‘zlarni aytadi. Ikkinchi o‘quvchi qaysi tovushlar aytilmay qolganini topadi.

Qoidani tushunib oling.

Ayrim so‘zlarning oxirida kelgan *d*, *t* tovushlari ba’zan aytilmasa ham yoziladi: ***Samarqand***, ***to‘rt***, ***daraxt***.



10-mashq. **Nuqtalar o‘rniga *d* yoki *t* harflaridan mosini qo‘yib yozing.**

g‘ish…

payvan... farzan...



xursan... juf...

do‘s... go‘sh...

to‘r... balan...

mush…

11-mashq. She’riy topishmoq javobini toping. Aytilishi bilan yozilishi farq qilgan so‘zlarni yozing.

Nechta shalpang qulog‘i?

Umarjonning to‘rt qo‘zisi,
Uloqlari bor edi.
Va ularning o‘n sakkizta
Quloqlari bor edi.
Chorvasining son-sanog‘i
Chiqib qolib yodidan,
O‘yinqaroq Umarjon
So‘rab yurar Shodidan.
Qani o‘ylang, har birining
To‘rttadan-ku, tuyog‘i,
Demak, unda uloqlarning
Nechta shalpang qulog‘i?

Turshunboy Adashboyev



12-mashq. Maqollarni o‘qing. Ularni qanday tushunganingizni aytib bering.

Baliq suvsiz yasholmas,
Inson – do‘stsiz.



Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.



Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,
Odam – mehnati bilan.



Qobil farzand –
jonga payvand.

Maqollarda keltirilgan aytilishi va yozilishida farq qiladigan so‘zlarni topib yozing.

Aytilishi va yozilishida farq qiladigan so‘zlar ishtirokida uchta gap tuzing.

13-mashq. **Rasmga qarab, kichik hikoya tuzing. Unga chiroyli nom o‘ylab toping.**



Hikoya nomidagi undosh harflar tagiga chizing.

14-mashq. *“Ko‘proq undosh”* **o‘yinini o‘ynaymiz.**



“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” **mavzusida matn yozing.**

Safar rejasini tuzing. Qaysi shaharlarga borishni, nimalar xarid qilishni istaysiz? Bular haqida batafsil yozing.



1-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozib, undosh harflar tagiga chizing.

Tovush paychalari



Tomog‘imizda tovush paychasi deb ataluvchi g‘aroyib tana a’zosi bor. Uni havo yo‘lining darvozasi deb atash ham mumkin. Chunki **nafas** olganimizda **tovush** paychasi ochiladi. **Taom** yeganimizda esa yopiladi. Agar tovush paychasi bo‘lmaganida ichgan suvimiz oshqozonga emas, balki o‘pkamizga ketib qolishi mumkin edi. Tovush paychasining yana bir **muhim** vazifasi bor. U ovozni hosil qiladi. Tovush paychasi bo‘lmasa, **odam** gapira olmaydi.

Odam gapirganida o‘pkadagi havo tashqariga chiqa boshlaydi. Shu vaqtda tovush paychalari taranglashib, **havo** yo‘lini siqadi yoki kengayib, havoning **erkin** harakat qilishiga yo‘l beradi.

Tovush paychasining tebranishi natijasida turli tovushlar hosil bo‘la boshlaydi.

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar





1. Ulug‘ ajdodlarimiz haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Olim ajdodlarimiz nega “Buxoriy”, “Xorazmiy”, “Farg‘oniy” nomlari bilan mashhur bo‘lishgan?
3. *Kitob* so‘zining aytilishi ham, yozilishi ham bir xilmi?



Tovush paychasi qayerda joylashgan?



Tovush paychasining qanday vazifalari bor?



b, *y*, *z* tovushlarini talaffuz qilganda tomog‘ingizda tovush paychasining tebranayotgani seziladimi?



p, *t*, *s* tovushlarini talaffuz qilganda tovush paychasining tebranishi deyarli yo‘qolgani seziladimi?

Qoidani tushunib oling.

O‘pkadan chiqayotgan havo oqimining tovush paychasini tebratishi *ovoz*ni hosil qiladi.

O‘pkadan chiqayotgan havo oqimining til, tish yoki lab to‘sig‘iga uchrashi *shovqin*ni hosil qiladi.



2-mashq. Undosh tovushlarni talaffuz qiling.



1. Qaysi tovushlar talaffuz qilinganda ham ovoz, ham shovqin eshitilyapti?
2. Qaysi tovushlar talaffuz qilinganda faqat shovqin eshitilyapti?

Qoidani tushunib oling.


O‘zbek tilida *jarangli* va *jarangsiz* undosh tovushlar bor.

Jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda *shovqin* va *ovoz* eshitiladi, jarangsiz undosh tovushlarda *faqat shovqin* eshitiladi.



Jarangli undoshlar	
b	d
g	v
z	g‘
j	j
l	m
n	r
y	ng

Jarangsiz undoshlar
p
t
k
f
s
x
ch
sh
q
h



3-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ustun shaklda yozing.



Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro shahri yaqinidagi **Afshona** qishlog‘ida tug‘ilgan. Olimning “Tib qonunlari” **kitobi** dunyoga **mashhur**. Ibn Sino Yevropada **Avitsenna** nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Kattalardan so‘rab, buyuk allomalar haqida ma’lumot yozib keling.

4-mashq. So‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va yozing.

gul – pul don – son yoy – toy

dil – til jazo – fazo zina – sina

non – kon joy – choy

1. So‘zlarning ma’nosini bir-biridan farqlab turgan tovushlar tagiga chizing.
2. So‘zlarning birinchi tovushini talaffuz qilib, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni aniqlab, ikki ustunga ajratib yozing.

Namuna: *gul – pul.*

Jarangli undoshlar	Jarangsiz undoshlar
	

6-mashq. **So‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va yozing.**



kitob oftob

javob maktab band

obod maqsad ziyod

Talaffuz qilish vaqtida jarangsiz undosh bilan almashib qolayotgan jarangli undoshlarni aniqlab, ularning tagiga chizing.

Qoidani tushunib oling.

O‘zbek tilida jarangli va jarangsiz undosh tovushlar bor. Ba’zan talaffuzda jarangli undosh o‘rniga uning jarangsiz jufti aytiladi.

Masalan: *kitop deb aytilsa ham,*
kitob deb yoziladi.



Yoziladi	Jarangli undoshlar	Jarangsiz undoshlar	Aytiladi
kitob	b	p	kitop
obod	d	t	obot
barg	g	k	bark
avtobus	v	f	aftobus
tez	z	s	tes
tog‘	g‘	x	tox
burj	j	ch	burch
garaj	j (jurnal)	sh	garash

7-mashq. She’rni ifodali o‘qing va ko‘chiring. *P* tovushi aytilsa-da, *b* harfi yoziladigan so‘zlar tagiga chizing.

Nok deydi: bol bog‘lab,
Qolibman pishib,
Qo‘rqaman, daraxtdan
Ketmayin tushib.
Endi sho‘x bolalar
Silkitsa chatoq,
Shamolga to‘ktirmay
Terib ol, o‘rtoq.

Qambar Ota



Talaffuzda *t* tovushi aytilib, *d* harfi yoziladigan so‘zlarga misollar toping.

8-mashq. So‘zlarni o‘qing va qiyoslang.

omad		omadi
maktab		maktabi
kitob		kitobi
odob		odobi
barg		bargi

1. Berilgan so‘zlarni birma-bir ovoz chiqarib o‘qiganda oxirgi undosh tovushning talaffuzida qanday o‘zgarish bo‘lyapti?
2. Ikkinchi ustundagi so‘zlarda undoshdan keyin kelgan unli tovush nimani o‘zgartiryapti?

Qoidani tushunib oling.

So‘z oxirida kelgan jufti bor undosh tovushning yozilishini tekshirish uchun undoshdan so‘ng unli tovush qo‘shib aytamiz.



Tekshiruvchi so‘z deb so‘z oxirida undoshdan keyin unli tovush qo‘shilgan so‘zga aytiladi: *umid – umidi*.

9-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undosh harflardan mosini qo‘yib, so‘zlarni yozing.

kito…

makta...

hiso...

daroma...

ofto...



g‘oli...

oma...

savo...

tarti...

hi… odo…

Har bir so‘z oxiriga *i* tovushini qo‘shing, nuqtalar o‘rnini to‘g‘ri to‘ldirganingizni tekshiring.

10-mashq. Partadoshingiz bilan birgalikda bajaring.

1. Talaffuzda jarangli undosh o‘rniga jarangsiz undosh aytiladigan 10 ta so‘z topib yozing.
2. So‘zlarni navbat bilan talaffuz qiling. Partadoshingiz so‘z oxiriga unli tovush qo‘shib aytsin.
3. So‘ng qaysi tovushlar talaffuz chog‘ida o‘zgarayotgani haqida suhbatlashing.

11-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi undoshlarning jarangli yoki jarangsiz juftlarini yozing.

Nilometr

Nil daryosi **qirg‘oq**larida yashagan qadimgi odamlar turmushi daryo suvining **ko‘p** yoki kamligiga bog‘liq bo‘lgan. Agar Nil daryosi to‘lib **oqsa**, **o‘sha** yili hosil mo‘l bo‘lgan. Shuning uchun ham **dehqon**lar har yili Nil daryosining suvi qanday bo‘lishiga qiziqishgan. 861-yili ulug‘ bobomiz Ahmad al-Farg‘oniy daryo suvini o‘lchashga yordam beradigan nilometrni ixtiro qilgan. U Misr aholisi uchun bu inshootni qurib bergan.



1. Nil daryosi haqida nimalarni bilasiz?
2. Ahmad al-Farg‘oniy qayerda tug‘ilgan deb o‘ylaysiz?
3. Nilometr nima uchun kerak edi?

12-mashq. Maqollarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undosh tovushlarni yozing.



Bilmaganin so‘ra... o‘rgangan – olim,
Orlani... so‘ramagan o‘ziga zolim.



Ilmsiz bosh qashir,
Xushoma...go‘y gap tashir.



Kito... ko‘rmagan kalla –
Giyoh unmagan dala.



Ustoz ko‘rmagan shogir...
Har maqomga yo‘rg‘alar.

Maqollarni qanday tushundingiz? Bu haqida so‘zlab bering.

Al-Beruniy, al-Buxoriy, al-Farg‘oniy yoki Ibn Sino haqida imkon qadar ko‘proq ma’lumot yig‘ib keling.

13-mashq. Rasmga qarab hikoya yozing.



1. Hikoyangizdagi aytilishi va yozilishi bir-biridan farq qiluvchi so‘zlar tagiga chizing.
2. Shu so‘zlardagi undoshlarning jarangli yoki jarangsiz juftini yozing.

14-mashq. Guruh bo‘lib bajaring.

1. Har bir guruh al-Beruniy, al-Buxoriy, al-Farg‘oniy va Ibn Sino haqida 6 tadan savol tuzadi.
2. Guruhlar navbatma-navbat o‘zlari tuzgan savolni raqib guruhga beradi.
3. Qaysi guruh ko‘proq savolga to‘g‘ri javob bersa, shu guruh g‘olib bo‘ladi.

Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. *P* tovushi aytilsa-da, *b* harfi yoziladigan so‘zlar tagiga chizing.



J, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosini o‘rganamiz



Albatta, o‘g‘lim! Bolalarning ovqatlanishiga qarab, qanchalik odobli ekanini bilib olish mumkin. Masalan, odobli bola taom yeyishdan avval, albatta, qo‘llarini yuvadi. Dasturxon va idishlarni ozoda tutadi. Tik turib, yurib, yotib ovqatlanmaydi, og‘zida ovqat bilan gapirmaydi, chapillatmaydi. Ovqatni o‘ng qo‘l bilan yeydi.



1. Odob deganda nimani tushunasiz?
2. Siz ovqatlanish odobiga rioya qilasizmi?
3. *Dasturxon* so‘zi kabi “xon” bilan tugaydigan nechta so‘zni bilasiz?

1-mashq. So‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing. *J* tovushining ikki xil talaffuziga e’tibor bering.

Jamila

jirafa jeton

jurnal jo‘xori

javon jo‘ja

jemper



Yuqorida keltirilgan so‘zlarni talaffuziga ko‘ra farqlab, ajratib yozing.
Har ikki turga oid misollarni davom ettiring.

Qoidani tushunib oling.

J harfi ikki xil tovushni ifodalaydi.

Masalan, *jo'ja, jasur* kabi so'zlarda *j* tovushi qattiq, *jirafa, jurnal* kabi so'zlarda esa *dj* tarzida talaffuz qilinadi.

Shartli ravishda ularning birini *j*, ikkinchisini *dj* deb atash mumkin.



2-mashq. O‘qing. *J* tovushi qatnashgan so‘zlarni talaffuziga ko‘ra ikki ustunga ajratib yozing.



Bir kuni kichkintoy pushti J maktabga ketayotganida yo‘lto‘sar, baqaloq ko‘k J uni to‘xtatib dedi:

– Buni qaranglar, jajji J kelyapti-ku. Xuddi jo‘jaga o‘xshaydi. Hoy, buncha mitti bo‘lmasang?

– Yo‘limdan qoch, darsga kech qolaman, – e’tiroz bildirdi oriq pushti J.

– Shoshma! Qara, men qanaqa baquvvatman, – bilagidagi kuchini ko‘rsatdi yo‘g‘on ko‘k J.


– Xo‘sh, nima bo‘pti?

– Nima, ko‘rmayapsanmi jirafa kabi balandman!

– To‘g‘ri, men ozg‘inginaman, – gap boshladi

pushti J, – baquvvat mushaklarim bilan maqtana olmayman. Yana jurnalda senikiga o‘xshash semiz “ikki”larim ham yo‘q. Ammo men jasurman. Sendan zig‘ircha ham qo‘rqmayman. Kuchingni maqtanishga emas, bilim olishga sarflasang yaxshi bo‘lardi.

Bu gapdan keyin yo‘g‘on ko‘k J qizarib, boshini egib qoldi.



1. Qaysi qahramon odobsizlik qildi?
2. Odobli bolalar yo‘lda kimnidir uchratib qolsalar, qanday gaplashadilar?

Odob va odobsizlik haqida maqollar topib yozing.

3-mashq. Rasmdagi so‘zlarni topib, ovoz chiqarib o‘qing.



So‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. *J* tovushi tagiga bitta, *J* tovushining tagiga ikkita chiziq chizing.
O‘ylab ko‘ring, *J* tovushi, asosan, qanday so‘zlarda uchrayapti?

4-mashq. She'rni o'qing. Savollarga javob bering.



Jirafa

– **Jirafa**, hoy **jirafa**,
Bo'ying buncha ham uzun?
Uzoqni ko'rganingga
Quvonasanmi o'zing?
– Alam qilar, **xotirjam**
Ko'rdim deya uzoqni,
Sezmay qolsa oyog'im
Tagidagi tuzoqni.

Qambar Ota

Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi J tovushi tagiga bitta, J tovushi tagiga ikkita chiziq chizing.

1. Jirafa nega oyog'i ostidagi tuzoqni ko'rmay qoldi?
2. Doim yuqoriga, osmonga qarab, oyog'ining ostiga e'tibor qilmaydigan odamni bir so'z bilan nima deb atash mumkin?

J va J tovushlari qatnashgan so'zlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.

5-mashq. Imlo lug‘atidan foydalanib, xato yozilgan so‘zlarni tuzatib yozing.

Namuna: ~~Daraht~~



6-mashq. Ikki xil talaffuzdagi *J* ishtirok etgan so‘zlardan foydalanib, kichik matn tuzing va daftaringizga yozing.

7-mashq. Maqollarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harflaridan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

Ilon za...ri tishida, yomon za...ri tilida.





A...moq o‘zi bilmas,
Bilganning so‘ziga kirmas.

Ya...shi xulq – kishining ...usni.





Kattalar izzatda – kichiklar ...izmatda.

1. Maqollarning mazmunini qanday tushundingiz?
2. Odamning haqiqiy chiroyi uning qaysi xislatlarida ko‘rinadi deb o‘ylaysiz?
3. Bolaning odobsizligini nimadan bilish mumkin?

Qoidani tushunib oling.

Talaffuz vaqtida *x* tovushi qattiq, *h* esa bo‘g‘izda yumshoqroq aytiladi.



Masalan:
daraxt, taxta, paxta so‘zlarida ***x*** tovushi qattiq aytiladi. ***Mehmon, halol, havo*** kabi so‘zlarda ***h*** tovushi bo‘g‘izda yumshoq aytiladi.

qattiq *x*



paxta

Shuning uchun bu tovushlar qattiq *x* va yumshoq *h* deb ham ataladi.

yumshoq *h*



haykal

8-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harflaridan mosini qo‘yib yozing.

Farzand

Luqmoni hakimdan so‘radilar:
– Nega kattalar kichiklarga nasi...at qiladilar?
Luqmoni hakim javob berdi:

– Yodingizda bo‘lsin, keksalarning yoshlarga nasihati hamisha suv va ...avodek zarur. Bola bir nihol kabi, ulug‘lar esa bog‘bondirlar. Bog‘bon hamisha ni...ol parvarishida hushyor, lek qattiqqo‘l, ayni vaqtda me...ribon bo‘lishi kerak. Zero, nasi...at eshitmagan, tarbiya berilmagan farzand ham qarovini yo‘qotgan ko‘chat bilan barobar.

“Bolalar adabiyoti” jurnalidan



1. Nasihat deganda nimani tushunasiz?
2. Luqmoni hakim nega bolani niholga o‘xshatdi?
3. Sizga ham kattalar nasihat qilishadimi?

X va h harflari qatnashgan so‘zlardan kichkina lug‘atcha tuzing.



9-mashq. Juft-juft bo‘lib bajaring.

1. *X* va *h* tovushlari ishtirok etgan 5 tadan so‘z topib yozing.
2. Partadoshingizga so‘zlarni birma-bir o‘qib bering.
3. Partadoshingiz eshitgan so‘zlarini to‘g‘ri yozishi kerak.
4. So‘ng o‘rin almashinglar. Partadoshingiz o‘z so‘zlarini o‘qisin, siz yozing.




10-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

- mazali ...
- mehmondo‘st ...
- bosh ...
- sovuq ...
- baland ...
- dakan ...
- chiroyli ...
- qiziqarli ...
- keng ...

Foydalanish uchun so‘zlar: *hovli, xalq, harf, daraxt, xo‘roz, handalak, hikoya, harorat, xulq.*

Qoidani tushunib oling.

Ayrim hollarda *x* va *h* tovushlari so‘zning ma’nolarini ham o‘zgartiradi. √





11-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni to‘ldiring.



1. Odil sho... shu zahoti yolg‘onchini tutib kelishlarini buyurdi.
2. Mevalar pishib yetilganidan daraxt sho...lari egilib qolgandi.
3. Yuzining o‘ng tomonida kichkina, o‘ziga yarashib turadigan ...oli bor edi.
4. Alisher bu ...oldan uyalib qizarib ketdi.



12-mashq. Rasm asosida *x* va *h* harflari qatnashgan so‘zlardan foydalanib, kichik hikoya tuzing.



13-mashq. Guruh-guruh bo‘lib bajaring.

DARA...T, ME...MON, ...AYOT

1. Har bir guruh 10 ta ***x*** va 10 ta ***h*** qatnashgan so‘zni qog‘oz parchasiga rasmdagiday yozadi.
2. Qog‘oz parchalari aralashtirilib, raqib guruhga uzatiladi.
3. Qaysi guruh nuqtalar o‘rnini to‘g‘ri va tez to‘ldirsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi.



Quyidagi so‘zlarning ma’nosini topib yozing.

obod xulq husn uyat

Harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlar



Uyimizning old tarafidagi qirq hovli, orqa tarafidagi qirq hovli, chap tarafidagi qirq hovli, o‘ng tarafidagi qirq hovlidagilarning hammasi bizga qo‘shni hisoblanadi. Unutmanglar, hozir ham, katta bo‘lganingizda ham mahalladoshlaringiz bilan ahil bo‘linglar. Ularga yaxshilik qilishdan qochmanglar.

Albatta, shunday qilamiz!

1. Mahallangiz qanday nomlanadi?
2. O‘z qo‘shnilaringizni taniysizmi?
3. Keksa qo‘shnilarga biror ishlarida yordam berganmisiz?
4. *Qo‘shni, chap, yaxshilik* kabi so‘zlarda qaysi tovush ikkita harf bilan ifodalanadi?

1-mashq. Harf birikmalari va bo‘g‘inlarni talaffuz qiling.

ta sh ng da ch

mu si be

Qaysi tovushlar ikkita harf bilan ifodalanadi?

Qoidani tushunib oling.

O‘zbek tilidagi *sh*, *ch*, *ng* undosh tovushlari *harf birikmasi* bilan ifodalanadi.



2-mashq. Ovoz chiqarib o‘qing.

- ko‘cha
- qo‘shni
- tengdosh
- jangchi
- ishchi
- dushanba
- chumoli
- lochin
- mushuk
- pashsha
- kichik
- uchburchak
- sharshara
- ishonch

Yozing. Harf birikmalarining tagiga chizing.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.



Foydalanish uchun so‘zlar: *tinch, qo‘shni, yetti, yaxshi.*

4-mashq. So‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing.



Qaysi so‘zlar *mahalla* mavzusiga aloqador emas? Mahallaga mos va mos bo‘lmagan so‘zlarni ajratib yozing.

Mahallangiz haqida 3 ta gap tuzing. Harf birikmalarining tagiga chizing.

5-mashq. Matndagi ma'lumotlarga diqqat qiling.

Toshkent shahrida Kamolon nomli juda katta mahalla bor. Tarixda bu mahallaning nomi "Kamongaron", ya'ni "Kamonsozlar" bo'lgan. Chunki ilgari bu yerlarda kamon yasaydigan hunarmandlar yashagan. Hozir bu mahalla Bunyodkor shoh ko'chasi yoqasida joylashgan. Kamolonda Xo'ja Alambardor masjidi hamda Qozirobod, Oftob, Tutzor kabi o'nlab ko'chalar ham bor.



1. Kamolon mahallasi nega tarixda "Kamongaron" deb nomlangan?
2. Kamolon mahallasida qaysi masjid bor?
3. Kamolon mahallasidagi ko'chalarning nomlarini bilasizmi?

6-mashq. Xaritadan foydalanishni o‘rganing.



Xaritaga qarab, Kamolon mahallasidagi ko‘chalarning nomini yozing. Harf birikmalarining tagiga chizing.

7-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.


- dengiz
- bodring
- zarang
- alanga
- bong
- tong
- keng
- chang
- zang
- ming
- tanga
- tarang
- kulrang
- dongdor
- manglay
- tanglay

Namuna: teng-dosh.

8-mashq. O‘qing.

Ikki tomoni **shinam** uylardan iborat ko‘chalardan o‘tib bormoqdasiz. Har bir xonadon atrofi supurilgan, suv sepilgan. Ariqchadan jildirab suv oqib turibdi. Kimdir uyining **ko‘cha** tomoniga tok ekib, so‘ri qilgan. **Boshqalar** esa mevali daraxt ekkan. Kichik-kichik egatlarga oshko‘k sepilgan, pomidor, baqlajon, bulg‘or qalampiri o‘sib yotibdi. Yana bir xonadon o‘z hududiga **zich** qilib terak ekib qo‘ygan. Shu serfayz ko‘chaning gavjumroq joyida “Mahalla guzari” degan yozuvga ko‘zingiz tushadi.

“Bolalar ensiklopediyasi”dan



1. Matnda qanday joy tasvirlangan?
2. Siz ham bunday joylarni ko‘rganmisiz?

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan yozing.

Tasavvur qiling, siz katta shahar loyihasini ishlab chiqyapsiz.

Shahringizni qanday nomlagan bo'lardingiz?

Shahringizdagi binolar qanday joylashishini xohlardingiz?



Undagi mahallalarni qanday nomlar edingiz?

Eng kamida 3 ta nom o'ylab toping.

9-mashq. Xonadagi narsalarning nomini bo'g'inlarga bo'lib yozing.

10-mashq. So'zlarni bo'g'inlarga ajratishdagi xatolikni aniqlang.

za-ng	ko‘n-glim	ra-ng-dor	ke-ng
ken-glik	jang-no-ma	deng-iz-chi	in-gliz

Xatolik aniqlangan so‘zlarni tuzatib ko‘chiring. Harf birikmalarining tagiga chizing.

11-mashq. O‘qing. Savollarga javob bering.

Bir kuni **o‘qishdan** kelsam, onam:

– Bolam, **Toshbuvi momongnikiga** chiqib o‘tin yorib bergin, boya iltimos qilib ketgandilar, – deb qoldilar. Qalinroq kiyinib yo‘lga tushdim.

Momoning uyi biznikidan uch hovli narida. **Ko‘chalar sirpanchiq**, bolalar **chug‘urlashib chanalarda uchishyapti**. **Momoning** hovlisiga kichkina darvoza orqali kiriladi. O‘tgan yili **qo‘shnilar** hashar qilib o‘rnatib berganmiz. Qanday **yumushi** bo‘lsa, u **kishiga qarashib** turamiz.

“Gulxan” jurnalidan

1. Sizning mahallangizda ham yordamga muhtoj keksa insonlar bormi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, keksalarga yana qanday yordam berish mumkin?

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozing. Harf birikmalarining tagiga chizing.

Hashar nima ekanini kattalardan so‘rab bilib oling. Hashar haqida kichik hikoya yozishga tayyorgarlik ko‘ring.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija:

1-mavzu. **O‘zbekiston – mustaqil davlat**
Tovushlar va harflar 4

2-mavzu. **Mehmondo‘st o‘zbek xalqi**
Unli tovushlar va harflar 16-17

3-mavzu. **Samarqand – go‘zal shahar**
Undosh tovushlar va harflar 30-31

4-mavzu. **Ulug‘ allomalar yurti**
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar 46

5-mavzu. **Bola odobi bilan aziz**
J, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosi 60

6-mavzu. **Mening mahallam**
Harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlar 76

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

S.D.Kuranov
Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik I qism. / Kuranov S. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023-y. – 88 b.

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O'zb-922
Q 80

ISBN 978-9943-9686-8-4

Kuranov Saydullo Dilmuratovich

Ona tili
2-sinf
I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*M.Nishonboyeva, Sh.Muslimova*
Badiiy muharrir	*A.Sobitov*
Musahhih	*X.Serobov*
Rassomlar:	*G.Jurayeva, M.Sulaymonova*
Kompyuterda sahifalovchi	*M.Zaimbetov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 03.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz. Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8. Adadi 626 913 nusxa. Buyurtma raqami 23-261. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.